

***Ergasheva Ra'no Muzaffarbek qizi***

*Namangan davlat universiteti talabasi*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada Termiz shahri yaqinida joylashgan Qoratepa arxeologik yodgorligining o'rganilish tarixi tahlil qilingan.

***Kalit so'zlar:*** Qoratepa, budda, stupa, mis, sopol chirog'don, kxaroshtiy, braxma, shox ibodatxonasi.

***Abstract:*** This article analyzes the history of the study of the archaeological monument of Karatepa, located near the city of Termez.

***Keywords:*** Karatepa, Buddha, stupa, copper, ceramic lantern, kharoshti, brahma, horn temple.

***Аннотация:*** В данной статье анализируется история изучения археологического памятника Каратепа, расположенного недалеко от города Термез.

***Ключевые слова:*** Каратепа, Будда, ступа, медь, керамический фонарь, хароштии, Брахма, рог храм.

## **KIRISH**

O'rta Osiyoning antik va o'rta asrlarga oid eng ko'xna, siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlarining biri – Termiz shahridir. Qadim zamonlarda janubni shimol bilan sharqni g'arb bilan bog'lovchi mamlakatlararo karvon yo'llari, jumladan, "Buyuk ipak yo'li" ning bir tarmog'i ushbu shahar orqali o'tgan. Shahar kengaygan, qator ma'muriy va ijtimoiy binolar, ibodatxona va masjidlar qurilgan.

Yillar, asrlar o'tishi bilan Termiz xarobaga aylana borgan. Uning qadimgi saroylari, masjidlari, karvonsaroylari, uylari, ustaxona va rastalari o'rnida asta-sekin katta-kichik tepaliklar paydo bo'ldi va hozirga qadar yetib keldi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida juda faollashgan tadqiqotlar ko'лами va ularning samarasi tufayli, O'zbekiston arxeologiyasi dunyo

ilm-fan darajasiga ko'tarildi. Bunday natija esa, o'z navbatida, davlat arxeologiyasi uchun dunyodagi yetakchi markazlar bilan ilmiy hamkorlik o'rnatishga, teng huquqli asosda shartnomalar tuzishga zamin yaratdi. Ayni vaqtda O'zbekiston hududida – Avstraliya, AQSH, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Polsha, Chexiya, Fransiya, Rossiya kabi davlatlarning arxeolog olimlari bilan hamkorlikda, xalqaro miqyosda, arxeologik tadqiqotlar olib bormoqda. Qoratepa yodgorligi ham bundan mustasno emas.

### **TADQIQOT**

Qoratepa – milodiy I-III asrlarga oid bo'lgan budda g'or ibodatxonalar majmuasidir. Eski Termizning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Obida 3 ta tabiiy do'nglikda qurilgan bo'lib, umumiy maydoni 8 gektardan ziyod. Janubiy do'nglikda g'or majmuasi 15 dan ziyod, G'arbiy qismida esa 5 dan ortiq bo'lmagan. Shimoliy do'nglikning sharqiy qismini yer yuzasida joylashgan monumental majmua egallagan, g'arbiy qismini esa yer yuzasiga qurilgan uncha xashamatli bo'lmagan ibodatxonalar band qilgan.

Dastlab 1926-1928-yillarda Moskvadagi Sharq xalqlari madaniyati davlat muzeyi yodgorlikni o'rganish bo'yicha ekspeditsiya tashkil qilgan. 1937-yilda M. E. Masson va E. G. Pchelina manzilgohda qidiruv va qazuv ishlarini amalga oshirgan [1. B – 266]. 1937 yilda E. G. Pchelina boshchiligidagi guruh 9 mahallada qidiruv qazishmalarini o'rnatib, yana ikkita g'orga kirishni ochib, hovlini va er usti kichik binosini qazishni boshladilar, uning devoridan rang-barang tasvirlangan rasm qoldiqlari topilgan. (2. C – 9.)

1960-yillardan boshlab, qariyb o'ttiz yildan ziyod vaqt mobaynida professor B. Y. Staviskiy raxbarligida Qoratepada ilmiy arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Aniqlangan ibodatxonalarning birida Buddaning loydan yasalgan katta xaykali va stupa topilgan. Stupaning tag qismi nilufar gulining yaproqlari bilan bezatilgan [3. B – 13]. Bunday stupalar buddizmga xos inshoot bo'lib, bu din tarqalgan barcha mamlakatlarda uchraydi. Stupalarning asosi to'rtburchak yoki shunga yaqin bo'lib, bir necha metr balandlikka ko'tarilgan. Ustiga esa 10 m ga yaqin bo'lgan silindrsimon inshoot qurilgan. Yuqori qismiga gumbazsimon qilib ishlangan va unga yog'ochdan yoki toshdan yasalgan bir necha soyabon

o'ratilgan. Muhimi shundaki, Qoratepadagi mazkur inshootlar xuddi Hindiston, Pokiston va Afg'onistondagi buddaviylarning ibodatxonalari kabi yer ostiga va yer ustiga qurilgan.

Qoratepaning yer yuzasi g'ordan iborat inshootlarni tarixning rang-barangligi ularning tipologiyasi hamda vazifasiga oid ko'plab savollar yuzaga keltirgan. Ayni mahalda yodgorlik majmuining bunyod etilishi navbatni rekontruksiya hamda me'moriy loyiha yechimlarini tahlil etish natijasida Qoratepa binokorlari yer yuzasi – g'or inshootlari tarxining ikki asosiy tipi – “mumtoz” (klassik) va “yo'lak” tipidan foydalanishgani ma'lum bo'lgan.

T. K. Mkrtichevning ta'kidlashicha, “mumtoz” tip (Chorsi xovli, markaziy ustun atrofidagi bo'ylamasida bir necha taqman – xujra bo'lgan aylana yo'lak ko'rinishidagi g'or qismi) negizi Dekan (Hindiston) buddaviy g'or inshootlariga borib taqaladi. Biroq, Qoratepa majmualarining tarixi pirovard natijada o'z timsolidan jiddiy farq qiladi. Bunday o'zgarishning bir nechta sabablari:

Birinchidan, bir vaqtlar mustaqil bo'lgan ibodatxona va monastrlarning yagona inshootda birlashtirilishidan iborat buddaviy g'or me'morchiligining umumiy rivojlanish jarayoni. Buddaviy me'morchilik tadqiqotchilari bu jarayon mil.avv. I asrdan boshlangan deb hisoblashadi.

Ikkinchidan, Hindistondan chetdagi ustalar g'or inshootlarini barpo etishda konstruktiv soxtalashtirishni qo'llagan. Buning natijasida chorsi zal o'rniga (ustunlari bo'lgan variant sifatida) markazda aylana yo'lak paydo bo'ldi. Qoratepa majmualarida g'or binolarini qurishda yo'l qo'yilgan xatoliklarga qaraganda bunday inshootni qurish an'anasiga ega bo'lmagan mahalliy ustalar bunyod etganidan dalolat beradi [4. B – 15]. Yer yuzaki g'or inshootlari tarixiy yechimi ikkinchi tipining ildizi, aftidan, kelib chiqishiga ko'ra g'arbga borib taqaladi. Bu tip g'or binolarining old qismi gumbazli ayvon tarzida bezatilganligi bejiz emas. Chunki sopoldagi matnlar orasida turli ko'rinishda “vixara” – monastr atamasi bir necha bor tilga olingan. Sh. Pidayev ta'kidlanishicha, Tarmitada buddaviylikning asosiy ravnaq topish davri milodiy II-IV asrlarga to'g'ri keladi.

Bu yerda o'tkazilgan tadqiqotlardan so'ng yer usti va ostidagi inshootlarning bir-biriga uzviy bog'langanlik holatlari ko'rib chiqilgan. Tepaliklar ustiga katta xovli qurilgan bo'lib, uning 4 tomoni keng ayvon bilan o'ralgan. Xovlining g'arbiy qismida yer ostiga joylashgan ibodatxona bilan bog'lovchi ikkita eshik joylashgan. Pastki xonalariga esa zinapoyalar orqali tushilgan. Devorning o'rtasidagi tokchada Buddaning katta haykali turgan. Xovlining shimoliy va g'arbiy qismidagi ayvonning devorlari qizil rangda oddiygina rasmlar bilan bezatilgan bo'lsa, janubiy ayvonning devorlari turli rasmlar bilan bezatilgan. Ular ayvonning o'rtasidagi eshikning ikki tomoniga chizilgan [3. B – 14]. Devordagi rasmlar xavorang bo'yoq ustiga chizilgan. Xususan, bu yerda ibodatxona qurilishiga mablag' ajratgan va unga xomiylik qilgan aslzoda erkak va ayollarning tasvirlari tushirilgan. Eshikdan kiraverishda, yuqorida Buddava kohinlar rasmi solingan. Bu yerda ayniqsa, Buddaning rasmi e'tiborni tortadi. Uning yuzida qandaydir sirli muloyimlik, lablarida iliq tabassum ifodalangan. Rasmlar katta mahorat bilan chizilgan bo'lsada, jo'shqin hayotiylik sezilmaydi.

1968-yili Qoratepa ibodatxonasidan 2-3 chaqirim shimoli-sharqda buddaviylarning yana bitta ibodatxonasi topilgan. Uning topilishi Baqtriya buddaviylikni o'rganishda muhim bir bosqich bo'lgan. Bu ibodatxona fanga Fayoztepa nomi bilan kirgan.

Din tarixi davlat muzeyi Leningrad guruhi ishtirokchilari sifatida turli davrlarda rassom E. B. Abrin (1980-1984, 1987-1988-yillar), restavrator N. V. Kalinin (1984-yil), ilmiy xodimlar T. M. Gelfman (1981-yil), B. V. Ivanov (1978-1980-yillar), V. Yu. Leshchenko (1983-yil), B. A. Xrshanovskiy (1978-yil) kabilar faoliyat yuritganini aytish mumkin. Din tarixi davlat muzeyi xodimi V. N. Mazurina raxbarligi ostidagi guruh Qoratepa buddaviylik markazining G va D majmualarida qazilma ishlarini olib borishgan. G majmuasini o'rganish 1964-yildayoq boshlangan edi va u 1975-yilda yangilanib, 1983-yilgacha bu qazilma ishlari davom etgan.

1998-yildan Kushon podsholigi davrida Tarmita – Termizning markaziy ibodatxonasi xisoblangan Qoratepa buddaviylik monastrlari majmuasida

O'zbekiston – Yaponiya Qoratepa arxeologik guruhi (raxbarlar: tarix fanlari nomzodi Sh. Pidayev, professor Kato Kuidzo) qaytadan keng ko'lamda arxeologik tadqiqot ishlarini amalga oshira boshlagan. Asosiy tadqiqot ishlari g'arbiy va shimoliy qismlarida boshlanib, hozirga qadar davom ettirib kelinmoqda [4. B – 6]. Tadqiqot ishlari natijasiga ko'ra, Qoratepadan Kushon podsholigi davriga oid sopol idishlar, kosa, ko'zachalar, mis chaqalar, ohaktoshdan ishlangan me'morlik detallari, plitalar, sopol chirog'donlar topilgan. Topilmalar ichida 70 dan ortiq sopol idish siniqlariga xindcha bitilgan yozuvlar (kxaroshtxi va braxma yozuvlari) va devorlarga chizilgan kushon-baqtriya xamda fors-paxlaviy yozuvlari aniqlangan.

Yodgorlikning janubiy tepaligida joylashgan ibodatxonalarning birida “Kxabevaka vixara” – “Shox ibodatxonasi” deb bitilgan yozuv topilgan. Mazkur topilmaga asoslanib tadqiqotchilar bu ibodatxona majmuasini qurilishiga shoxning o'zi xomiylik qilgan deb xisoblaydilar va shuning uchun “shox ibodatxonasi” deb ataganlar. Olimlarning taxminicha, bu shox mashxur kushon hukmdori Kanishka ham bo'lishi mumkin. Shu mazmundagi yozuv Qoratepaning shimoliy tepaligidan ham topilgan. Unda “Gandafar o'g'lining ibodatxonasi” deya yozilgan edi. Ma'lumki, Gandafar eng so'ngi kushon shoxlaridan biri bo'lgan. V. V. Vertogradovning fikricha, Sandafarning o'g'lini ismi “as vavxara” bo'lgan. Shunday mazmundagi yozuvlarning topilishi Qoratepa ibodatxonalarining qurilishiga shaharda joylashgan buddaviylarning jamoasi, shahar fuqarolari, shahar xokimlarigina xomiylik qilmay, balki kushon shoxlari va ularning eng yaqin qarindoshlari ham xomiylik qilganligidan guvohlik beradi, Aynan shu narsa ham Qoratepani Baqtriyadagi eng yirik buddaviylik markaziga aylanishiga asosiy omil bo'lgan bo'lsa ajab emas [3. B – 17].

Qoratepadagi hamma imoratlar turli vaqtlarda barpo etilgan. Keyinchalik avvalgilariga yondosh qilib qurilgan, so'ng ular bilan bir vazifani bajarishgan. Hammasi bir necha bor ta'mirlangan va tarxi o'zgartirilgan. Ibodatxonalar yoki boshqa muqaddas joylar ichi mavzuli (syujetli) va naqshinkor bezak, loyganch, ganch, tosh haykali bilan bezatilgan.

Milodiy III asr oxiriga kelib Qoratepa majmualari inqirozga yuz tutdi yoki vayron etildi. Bu holat sasoniylarning Kushon davlatiga qilgan harbiy yurishlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Lekin yodgorlik hududidagi majmuotlarning muayyan qismi mil. IV asr oxiri – V asr boshigacha ishlab turgan. Mil. IV asrdayoq bu yerdagi ko'plab tashlandiq xonalar va g'or ibodatxonalardan qabr sifatida foydalanilgan, so'ng kirish joylari xom g'ishtlar bilan urib yuborilgan. Eng dastlabki qabrlar yonida kushon-sosoniylar tipidagi tangalar, Peroz tangalari va unga taqlidan zarb qilingan tangalar uchraydi, keyingi qabrlarda esa, mil. V-VI asrlardagi Termiz hukmdorlari tangalari topilgan, ularning bir tomonida langar tasvirlangan. VII asrdan XII asrgacha Qoratepadagi yarim ko'milgan ayrim xonalar va g'orlardan zohidlar foydalanishgan.

2019-yil 4-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-sonli qarorida mamlakat xududidagi arxeologik qidiruv va qazuv ishlarini amalga oshirilishi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Qoratepa yodgorligi ham bundan mustasno emas.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, Qoratepadagi hamma imoratlar turli vaqtlarda barpo etilgan. Keyinchalik avvalgilariga yondosh qilib qurilgan, so'ng ular bilan bir vazifani bajarishgan. Hammasi bir necha bor ta'mirlangan va tarhi o'zgartirilgan. Ibodatxonalar yoki boshqa muqaddas joylar ichi mavzuli (syujetli) va naqshinkor bezak, loyganch, tosh haykali, ganch bilan bezatilgan. Tadqiqotlar hozirga qadar amalga oshirilib, yodgorlik o'rganib kelinmoqda. Bugungi kunda manzilgoh ibodatxonalarini o'rganishda turli soha mutaxassislari ishtirok etmoqda. Xozirgacha u yerdan sakkizdan ortiq budda inshootlar majmuasi ochib o'rganildi. Har bir bunday inshoot to'g'ri to'rtburchakli katta xovli, uni to'rt tomonidan o'rab turadigan yo'lak-ayvonlardan va yer ostiga qurilgan inshootlardan iborat bo'lgan.

Qoratepadan topilgan rasmlar, xaykallar va boshqa dekorativ-amaliy san'at buyumlari kushonlar davridan Tarmita – Termizda o'ziga xos an'ana va yo'nalishga ega bo'lgan alohida badiiy maktab bo'lganidan dalolat beradi. Bu

maktab kushonlar davrida Baqtriya badiiy madaniyatininggina emas, balki butun antik madaniyatning rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2000. – 476 b.
2. Ставиский Б. Четверть века на Каратепа. Т: Узбекистан, 1986. – С 9.
3. Пидаев Ш. Қадимий Термиз. – Т: Фан, 2001. – 32 б.
4. Умаров Э. Термиз қадимда ва ўрта асрларда// Малакавий битирув иши. – Т: 2012. – 62 б.
5. <https://society.uz/uz/news/detail/news/595>
6. <https://meros.uz/object/qoratepa>
7. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qoratepa\\_\(majmua\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qoratepa_(majmua))